

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

**Muassislar:**

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 9 - 15 - oktabr N:41 (66582)

## GULLARGA BURKANGAN KUN

Bayram davom etmoqda



Yurtimizda bayramlar ko'p. Lekin shu bayramlardan eng qadrlisi nazarimda, 2 kun: biri 8-mart - Onajonlar bayrami, ikkinchisi esa 1-oktabr O'qituvchilar kuni bayramidir. Shu kuni dunyodagi barcha so'zlar ham, gullar ham onalar-u ustozlarga ataladi. Ustozlar mehnati qadrlanadigan kunda Mirzo Ulug'bek tumanidagi 27-maktabda ham katta tantana bo'lib o'tdi. Bayramga juda ko'p mehmonlar kelishdi. Davraning eng to'ridan ustozlar uchun joy ajratildi. Ularga atalgan she'r-u qo'shiqlar yangradi. Bu maktabda saboqlar rus va o'zbek tilida olib borilgani uchun kechani rus bolasi o'zbek tilida, o'zbek qizi rus tilida olib borishdi. Koreys, qozoq, o'zbek, hind raqsleri ijro etildi. Maktab direktori Yevgeniya Zoirova, ma'rifat va ma'naviyat ishlari

bo'yicha muovin Viktoriya Alekseyevna, Ilmira Yaxshimurodovalar so'zga chiqib, ustozlarni tabriklashdi. Maktabda uzoq yillardan buyon muallimlik qilayotgan Manzura Qurbonboyeva o'zlarini dars berayotgan 4-«B» sinf va 6-sinf o'quvchilari bilan sahna ko'rinishlari namoyish etishib, barchaning olqishiga sazovor bo'lishdi. Kecha so'nggida biz yil davomida mazza qilib mutolaa qiladigan «Tong yulduzi»mizdan she'rlar yodlab, hangomalarni sahnalashtirdik. O'z navbatida mehmonga kelgan ota-onalarimiz o'zlariga zavq-shavq bag'ishlagan gazetamizga obuna qilishdi. Biz



sevimli nashrimiz orqali barcha ustozlarni va gazeta xodimlarini ulug' ayyom bilan muborakbod etamiz.

Suhrob MIRZAYEV.  
Suratlar muallifniki.

Aziz tengdoshlarim, sportga bo'lgan ishtiyogi orqali jahon kezgan, O'zbekistonimiz dovrug'ini dunyoga taratgan, nufuzli musobaqalarda g'alabalari bois, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib, madhiyasini yangratgan yosh sportchilarimiz talaygina-a? Ana shunday umidli sportchilardan biri bizning maktabda, aynan bizning sinfmizda o'qiydi.

Ismi Zulfiya Qoldiboyeva, sportning yengil atletika turi bilan 7 yoshidan buyon shug'ullanib keladi. 13 yoshida gimnastika bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'ldi. Maktabdagi o'qishlari ham a'lo. Toshkent, Samarqand, Chimkent, Olma-ota shaharlarida hamda Fransiyaning Liven shahrida o'tkazilgan musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib, 1-va 2-o'rinlarni olib keldi. 2004-yilda esa «Ulug'bek yulduzi» Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Suratdagi mana bu qomatlari raso qizlarni balki taniyotgandirsiz? Yaqinda yurtimiz mustaqilligining 15 yilligi tantanalarida o'z san'at va mahoratlarini namoyish etibgina qolmay, bu sport turining bor jozibasi, nafisligi-yu latofatini «ko'z-ko'z» qilgan bu qizlarning orasida Zulfiya ham bor. Uning, ayniqsa, chet davlatlarga borib kelgandan keyingi taassurotlarini eshitish juda maroqli-da. Nufuzli musobaqalarda navbat O'zbekistonga kelganda qalbini avvaliga allanechuk hayajon qamrab olarkan. Maydon uzra hilpirab turgan bayrog'imizga boqib, ota-onasi, ustozlari siymosini ko'rgandek bo'larkan-u, shular dalda bo'lib, bor mahoratini ishga solarkan. Chet ellik tomoshabinlarning gulduros qarsaklari, «Uzbekistan», «Uzbekistan», degan olqishlarini eshitib, ko'z yoshlari shashqator



oqaverarkan, oqaverarkan...

-Sportchi bo'lish yaxshiyu, lekin bo'sh vaqtning kam bo'lishi chatoq-da...

-Bo'sh vaqtim ko'p bo'lsa, uni ham asosan sport zalida o'tkazgan bo'lardim: sportning tennis, suzish turlari bilan shug'ullandim. Yana gullar o'stirgan, badiiy kitob o'qigan bo'lardim.

Darslaridan ortib, har kuni sport mashg'ulotlariga qatnash, yana, turli musobaqalar, hayajon-u asabiylashishlar... Shunday bo'lsa-da, uning biror marta noliqanini eshitmaganman. Aksincha, bizdan tetik-roq, sho'x va quvnoq qiz. Bunday yutuqlarga erishishida birinchi navbatda ota-onasidan, qolaversa, ustozlari Mohira Ergashevna, Viktoriya Vasilyevna, Nigora Isroilovalardan behad minnatdor bo'lib yuradi.

Zulfiyani kelajakda hamma nomdor sportchi bo'ladi, deb o'ylaydi. Uning o'zi esa mohir tarjimon bo'lishni niyat qiladi.

Qaniydi, oramizda Zulfiyaga o'xshagan, hozirdanoq maqsad bilan yashaydigan tengdoshlarimiz ko'p bo'lsa!

Umida SHARIPOVA,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi  
Habibulla Abdullayev nomli  
2 - o'rta maktabning  
8 - «A» sinf o'quvchisi.



Sog' yurak - tog' yurak

**TO'G'RI SO'ZLILIKNI O'RGANDIM**

Adabiyotga oshno bo'lgan inson yomonlikni bilmaydi. Bizning ona tili va adabiyot faniga ixlos qo'yishimizga Dono opa Soliyeva sababchi bo'lganlar. Ular nafaqat bu fanlardan, balki hayotda ko'pni ko'rgan inson bo'lganliklari uchun hayot darsidan ham saboq beradilar. Dono opa bizga ibo bilan, ma'nomazmunli gapirishni, to'g'ri so'zlilikni o'rgatadilar.

Odamlarga mehribon bo'lishga, rost gapirishga da'vat etadilar. Fursatdan foydalanib, ustozimizga sihat-salamatlik, uzoq umr tilayman. Yuzingizdan hech qachon kulgu arimasin, deyman.

**Muhtaram SULAYMONOVA,**  
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi  
227-maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.

Men 48-ixtisoslashgan maktab-internatda shippagida yurilishining o'zi tozalikni ta'minlar o'qirdim. Bahor oylarida maktabimizga 16- ekan. Oshxonada tayyorlanayotgan ovqatlarning sifati va xilma-xilligi barchamizga manzur bo'lmoqda. Men bu maktabda o'qiyotganimdan faxrlanaman va bilim dargohimga munosib bo'lishga harakat qilaman.

Men 16-ixtisoslashgan maktab internatiga hujjat va ariza topshirdim. Test sinovlaridan 54 ball to'plab, o'quvchilar safiga qabul qilindim. Bu yerda o'qish tizimi umuman boshqacha ekan. Xona va zallar nihoyatda toza, oyoq kiyimlarsiz, uy

Men 48-ixtisoslashgan maktab-internatda shippagida yurilishining o'zi tozalikni ta'minlar o'qirdim. Bahor oylarida maktabimizga 16- ekan. Oshxonada tayyorlanayotgan ovqatlarning sifati va xilma-xilligi barchamizga manzur bo'lmoqda. Men bu maktabda o'qiyotganimdan faxrlanaman va bilim dargohimga munosib bo'lishga harakat qilaman.

**Dilnoza ABDUSAMATOVA,**  
Andijon viloyati, Ulug'nor  
tumanidagi 16-ixtisoslashgan  
maktab-internatining 7-sinf o'quvchisi.

**ORZU**

Assalomu alaykum, tahririyat xodimlari! Men Mirzo Ulug'bek nomli 43-o'rtta maktabning 6-sinfida o'qiyman. «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lganman. Gazetadagi turli-tuman topishmoqlar, tengdoshlarim haqidagi maqolalarni o'qib, ularga havas qilaman. Bo'sh vaqtlarimda she'rlar yozib turaman. Lekin she'rlarim hali bo'sh, ularni ustozimga ko'rsatganimda:

– Sen o'z ustingda ishlashing kerak, she'rlaringni qofiyalari yo'q, - dedilar. Men bundan to'g'ri xulosa chiqarib, taniqli shoirlarning she'rlarini o'qiyapman. Endi yana ham chiroyli she'rlar yozishga harakat qilaman. Xatlar orqali yana ko'rishguncha xayr.

**Humayra ESHMO'MINOVA,**  
Qashqadaryo viloyati,  
Qamashi tumanidagi Berdoli qishlog'i.



**XATLAR TEGIRMONI**

Maktabimizni yaxshi ko'raman. Chunki har kuni bir bayram. Sinfimiz o'quvchilari O'qituvchilar bayramiga puxta tayyorgarlik ko'rdilar. Ustozimiz Norxol opa Hamdamaliyeva sinfimizdagi barcha o'quvchilarga she'rlar bo'lib berdilar-da: «Bayramda tutilmasdan yodlab berasizlar», dedilar.

**Sherzod,**  
Shodiya

**USTOZGA SO'Z BERAMIZ!**

Risolat, Nazokat, muallim haqida she'rlar aytishdi. Feruza raqsga tushdi, Sardor va Xayrulla ijro etgan «Andijon polka»si barchani lol qoldirdi.



Shu kuni o'qituvchilarimiz yuzidagi nur sinfimizni yanada yoritib yubordi. «Hamisha a'lochi va odobli bo'lishga so'z beramiz», dedik biz. – Bu biz uchun eng yaxshi sovg'a bo'ldi, - dedilar quchog'i gulga to'lgan ustozimiz:

**Umidjon BERDIBOYEV**  
Poytaxtdagi  
248- maktabning  
3-«B» sinf  
o'quvchisi.

**BIZ «KAMALAK»-CHILARMIZ**

Bilimdon yoshlari,  
Izlanar halak.  
«Kamolot»ga yetmoq,  
Istar «Kamalak».  
Asl insonlikdir,  
Yo'nalishlari.  
Yorug' yo'l ochar,  
Har bir ishlari.  
«Kamalak» u bilan!  
Har yosh biladi.  
«Kamolot» hamisha,  
Yo'ldosh bo'ladi.  
Yurtimning yoshlari,  
Shuni bilingiz,  
«Kamalak» bilandir,  
Yorug' yo'lingiz!

**Mohinur QUDRATULLAYEVA,**  
Buxoro viloyati, Shofrikon  
tumanidagi A.Navoiy  
nomli maktab o'quvchisi.

**«SALOMATLIK SIRLARI» DARS**

Zangiota tumanidagi 14-, 15-, 16-, 38-, 40-, va 45-o'rtta umumta'lim maktablarida «Kamolot» sardorlarining o'zaro uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv avvalida sardorlar kelgusi rejalari, ya'ni, maktab, mahallalarda olib boriladigan ibratli ishlari haqida gapirib, ishni aholi va o'quvchilar salomatligiga e'tibor berishdan boshlashganini aytishdi. Endilikda darslar orasidan «Salomatlik sirlari» darsi ham joy oldi. Darsdan so'ng, malakali ustozlar mahallalardagi betob odamlarga yordam qo'llarini cho'zishmoqda.

«Kamolot»chilar rejasidan turli qiziqarli tadbirlar, bayram dasturlari, bellashuv va musobaqalar ham o'rin olgan. Tadbir so'nggida «Kamolot»chilar Qarshi shahrining 2700 yilligi munosabati bilan Qashqadaryo viloyatiga bo'ladigan safar kunini belgilab olishdi.

**Bir maktabdan qo'sh maktub**

**SOG'TANDA SOG'LOM AQL**

Tumanimizning Quyoshli mahallasidagi shifokorlik punkti tomonidan kutubxonalarimizga a'zo o'quvchilar orasida «Sog' tanda sog'lom aql» deb nomlangan jismoniy va aqliy bellashuv bo'lib o'tdi. Unda 6 nafar iste'dodli va ijodkor o'quvchilar tanlab olindi. Ular 5ta shart bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar. She'riy mushoira, go'zal raqsalar, kuy-qo'shiqlar bilan uyg'unlashib ketgan bu musobaqada g'oliblar aniqlandi. Unga ko'ra, Shuhrat Abdurasulov birinchi o'ringa sazovor bo'ldi va shifokorlik punktining alohida sovg'asini oldi. Bunday musobaqalarning tashkillashtirilishi o'quvchilarning tibbiy madaniyatini oshirishda yaqindan yordam bermoqda.

**Bahodir RAHMONOV,**  
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi  
40-maktabning 10-sinf o'quvchisi.

**QIZIQARLI XABARLARI  
KO'P BO'LSIN**

O'lkamizda ayni yig'im-terim fasli. Sarxil mevalar yig'ishtirib olinmoqda, paxtazorlar paxtakorlar bilan gavjum.

Bizning maktabimiz o'quvchilari ham darsdan so'ng o'ta-onalarimizga yordam berish uchun astoydil ter to'kyapmiz. Terimdagi ephillik sinfdoshlarimni yana bir bor sinovdan o'tkazmoqda. Biz 7-«A», 8-«A», 8-«B», 8-«V», 9-«A», 9-«B», 9-«V» sinflar kelishib paxta terib, olgan pullarimizga «Tong yulduzi» gazetasi uchun obunani birinchilardan bo'lib boshlab yubordik.

Endi obunachilar sifatida o'z gazetamizga istaklarimiz ham bor: «Gazetajon, sahifalaringda qisqa qiziqarli xabarlar, a'lochi o'quvchilar hamda respublikamiz maktablaridagi yangicha ta'lim, qurilayotgan sport majmualari haqidagi maqolalarni o'zimizga moslab, yanayam soddaroq tilda berib borsang!»

**Nasiba RAHMONOVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Muborak  
tumanidagi 4- umumiy o'rtta ta'lim  
maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi.

Men o'g'il bolaman, bu qizlarning ishi demasdan, ro'zg'or ishlariga qarashib, kattalarning olqishini olayotgan Jahongir Valixonov poytaxtimizning Yakkasaroy tumanida joylashgan 73-maktabning 6-«V» sinfida a'lo baholarga o'qir ekan.

–Oilaning kenjasi ekansiz, erkatoyni bo'lsangiz keragov? - deb uni suhbatga tortdik.

–Erkalik qizlarga yarashadi. Kichikligimni nazarda tutib, ba'zan oyijonim biror yumushni akamga buyursalar, darhol o'rnimdan turib, ularga ko'maklashaman.

–O'yingaroqlik qilib uy vazifalarini tayyorlamagan vaqtlaringiz ham bo'ladimi?

–Yo'q. Chunki sinf rahbarimiz Safargul Hayitboyeva biror kun vazifani tayyorlamay kelsak, kundaliklarimizga uy ishini bajarmagan deb yozib qo'yadilar.

–Yozib qo'ysa nima bo'libdi?

–Axir dadajonim o'qiydilar-da, keyin yomon ish bo'ladi.



## JAHONGIR

–Qulog'ingizdan cho'zadimi? uyalaman-da.

–Yo'q... Dasturxon atrofida bobojonim, buvijonim, barchamiz yig'ilib

o'tirganimizda aytib qolsalar, juda yomon-da...

–Qaysi fanlarga qiziqasiz?

–Ona tili, adabiyot, ingliz tili, matematika fanlarini yaxshi ko'raman. Ustozimiz Dilfuza Olimjonova ona tili darsini chuqur tushuntiradilar. Bilma-

ganlarimizni qayta-qayta o'rgatadilar. Sinf rahbarimiz Safargul Hayitboyeva kunlik o'qishimiz, kiyinishimizni qattiq nazorat qiladilar.

–Qiz bolalarni xafa qilmaysizmi?

–Yo'q. Yaxshisi, ulardan uzoqroq yurgan ma'qul. Shahzod Sobirov, Nurullo Tolipov, Zafar Toirov kabi o'rtoqlarim bilan ahil-inoqmiz. Birga dars tayyorlab, birga o'ynaymiz.

–Iya, qizlarni yomon ko'rasizmi?

–Yomon ko'rmayman. Bilasizmi, ulardan biroz

–Shirin ovqatlar pishirarmishsiz?

–Unchalikmas. Palovni yaxshi pishiraman.

–Palov qanday tayyorlanar ekan?

–Avval qozonga yog'ni solib, obdon qizdiramiz. Keyin go'shtni solib qovuramiz. Ustidan piyoz

tashlaymiz. So'ngra, to'g'ralgan sabzini solib qovuramiz. Xushbo'y bo'lishi uchun ziravorlar ham solamiz. Barcha masalliq bir tekis qovurilganidan so'ng, suv solib miltirab qaynatamiz. Tuzini ko'rib, ustidan guruchni solamiz. Guruch suvini tortganidan keyin uning yaxshiroq dam yeyishi uchun qoshiqning dastasi bilan chuqurchalar yasab, qopqog'ini yopib qo'yamiz. Biroz vaqtdan so'ng...

–Barchani oshxo'rlikka chaqiramiz, shundaymi?

–Albatta.

–Obbo Jahongir-ey...

Ko'cha-ko'yni chinniday supurib qo'ysa, palovxonto'rani binoyiday pishirsa, a'lochi bo'lsa – bu yaxshi. Qizlardan uyalsa-chi? Unga xolis bahoni o'zingiz berasiz-da, bolajonlar, a, labbay...

Salimjon IN'OMZODA suhbatlashdi.

## BOG'DA QOLGAN QUYONCHAM



Mening tug'ilgan kunimga dadajonim quyoncha sovg'a qildilar. U momiqqina va oppoqqina edi. Bir kuni meva tergani uyimiz yaqinidagi boqqa bordim. U yerga quyonchamni ham olib borgandim. Quyonchamni behi daraxti ostiga qo'yib, o'zim meva tera boshladim.

Birdaniga osmonda chaqmoq chaqib yomg'ir yog'ib ketdi. Men nima qilishimni bilmay, uyga qarab yugurdim. Uyga borganimdan so'ng, bog'da quyonchamni qoldirganim esimga tushdi... Tong otishi bilan uni olib kelgani boqqa yugurdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, quyoncham mendan xafa bo'lganday munchoq ko'zlari bilan ma'yus boqib turardi. Uni mahkam quchoqlab uyga olib ketdim. Quyonchamni quritib:

–Endi hech ham o'zingni yolg'iz tashlab ketmayman, - deb unga so'z berdim.

O'sha kundan buyon momiqqina quyonchamni yonimda olib yuradigan bo'ldim.

Dilbar HAYITBOYEVA,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi  
13-maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi.

## SHE'R NIMA EKAN?

Men asli Qashqadaryo Alisher Navoiy nomli litseyining 6-«A» sinfida tahsil yaxshi ko'raman. 6 yoshimdan qilaman. She'rlarimni birinchi chisi ham oyijonining xursand-she'rlar yozaman.

Bir kuni mak-gandik. Yonimda sinfdoshimning onamenga zimdan tikil-ga she'r yozasan, hayotdan qiynal-shadi-ku. Yoki onang o'zingning onang emasmi? - dedilar. Shu tobda ko'z o'ngim qorong'ulashib, bu savoldan titrab ketdim va savollariga «Yo'q», deya javob berdim. Buni qarangki, «Guruch kurmaksiz bo'lmagan»i dek, ijodni ham har xil tushunadiganlar bor ekan...



viloyatidanman. Hozirda Respublika Nafis san'at o'liman. Kitoblar o'qishni boshlab she'rlar mashq tinglovchisi ham, baholov-nim bo'ladilar. Ular-liklarini ko'rib, yana

tabdan qaytayot-Yorqinbek ismli si bor edi. U ayol di-da: –Sen ne-she'rni ganlar yozi-

Maftuna ESHONQULOVA.



Anora juda mehnatkash qiz. Bo'sh qoldim deguncha, onasiga yordam beradi. Gohida rasm chizadi, kichik ukasiga qarashni ham unutmaydi. Bir kuni Anora do'kondan non olib kelayotib, tengdoshi Sevaraning hovlisiga ko'zi tushib qoldi. Toza, shinam bu hovli har qanday kishining havasini keltirardi. Ayniqsa, yo'lak bo'ylab ekilgan oppoq atirgullar uni maftun qilib qo'ydi. Anora ancha kungacha bu hovlining yonidan o'tayotganda, oq atirgullarga havas bilan qarab

o'tadigan bo'ldi. Kunlarning birida yana shu hovliga havas bilan qarab turganida, orqa tarafdin ovoz keldi. O'girilib qarasa, Sevaraning buvisi Oynisa buvi ekan. Anora darrov salom berdi. Shunda Oynisa buvi:–Qizim, anavi chelak-larni uyimga

eltib ber, -dedi. Anora yordamga shoshildi. Chelaklarni hovliga olib kirgach, Oynisa buvi unga biroz kutib turishini aytdi va ichkariga kirib ketdi. Bir ozdan so'ng, qo'llarida atirgul ko'chatlari bilan chiqib keldi va:

–Mana bu oq atirgulning ko'chatlari. Uyingga olib borib, darrov ekib qo'ygin, ularni yoqtirasana-ku,

shundaymasmi qizim? -dedi.

Anora hayron bo'lib:

–Buni qayerdan bilasiz? - deb so'radi.

Shunda Oynisa buvi:

–Seni bir necha kundan beri kuzataman, - deb javob berdi. Anora Sevaraning buvisi bergan gullarni hovlisiga ekib qo'ydi. Endi u hovlisida ochilgan oq atirgullardan har kuni zavqlanib yashaydi.

Gulmira HAZRATOVA,  
Jizzax viloyati,  
Jizzax tumanidagi 57-ixtisoslashgan  
maktabning 7-sinf o'quvchisi.



## OQ ATIRGULLAR

## Muxbir safardan qaytdi

Aziz bolajonlar, gazetamizni diqqat bilan kuzatayotgan bo'lsangiz, respublikamizning har bir viloyati haqida alohida to'xtalib, u yerda yashaydigan tengdoshlaringiz hayoti, qiziqish va intilishlari haqida tayyorlanayotgan qo'sh sahifalarimizni o'qib borayotgandirsiz?

Bugungi hikoyamiz yurtimizning cho'l zonasida joylashgan bo'lsa-da, «Cho'lda yaralgan bo'ston», deya ta'riflanadigan Sirdaryo viloyati haqida. Ushbu sahifada bu go'shaning dili pok, sodda va samimiy odamlari, bilimdon va zukko bolajonlari bilan bo'lgan suhbatlarimizni o'qiydiz, ularning ijod namunalari bilan tanishasiz.

Safarimizni viloyat Xalq ta'limi boshqarmasidan boshladik. Bizni boshqarma boshlig'i Halil aka To'rayevning o'zlari iliq qarshi oldilar. Maqsadimizni bilgach, mamnuniyat bilan quyidagilarni gapirib berdilar:



Sirdaryo viloyati Xalq ta'limi tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 9-iyul 2004-yildagi 321-sonli Qarorining ijrosi yuzasidan juda katta ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi, bu kelaj-

gimiz egallari bo'lgan yoshlarimizning komil inson bo'lib ulg'ayishlari uchun yaratilgan shart-sharoit va g'amxo'rlik namunasidir.

2006-yilda jami 44ta maktabni, shulardan 14tasini kapital rekonstruksiya 15tasini joriy qilish, 14tasini ta'mirlash hamda ta'mirlash yo'li bilan foydalanishga topshirish, shuningdek, ita yangi maktab binosi qurish ko'zda tutilgan edi. Bugungi kunda rejadagi barcha ishlarimiz muvaffaqiyatli yakunlanib, viloyatimiz o'quvchilarni chiroyli, shinam va barcha sharoitlari muhayyo bo'lgan sinf xonalarida tahsil olishyapti. Bunday g'amxo'rliklarga javoban, ular ham o'qish va sportdagi yutuqlari bilan viloyatimiz sharafiga munosib himoya qilib kelishyapti.

O'quvchilarimiz orasida iqtidorlilar, Zulfiyaxonim qizlari, fan olimpiadalari g'oliblari, umidli yosh sportchilar, ota-bobolari kasb-korlarini e'zozlab kelayotgan mohir hunarmandlar talaygina. Ularni respublikaga tanitish, tengdoshlariga namuna qilib ko'rsatishdagi «Tong yulduzi»ning o'rini hech bir nashr bilan qiyoslab bo'lmaydi. Chunki bizning yutug'imiz - sizning ham yutug'ingiz ekanligini, shuningdek, o'quvchilarimizni tarbiyalash, ma'naviyatini yanada boyitish, dunyoqarashini shakllantirish borasida gazetangizning o'rni beqiyosligini ham juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham ayni kunlarda obuna jarayoni qizg'in davom etyapti. Darslardan bo'sh vaqtlarida paxta dalasiga chiqib, ota-onalariga ko'maklashayotgan o'quvchilarimiz shu yerning o'zidayoq gazetaga obuna bo'lishni boshlab yuborishdi. Har sinfga hech bo'lmaganda bir donadan «Tong yulduzi» kelib turishiga harakat qilyapmiz...

Halil akaning rejalari qalbimizda umid uchqunlarini alangalattidi. Shoyad, har yili obuna mavsumida ko'rsatkichlar bo'yicha viloyatlar ro'yxatining oxirida turadigan SIRDARYO bu yil barchaga namuna bo'lsa...

## MEHNETSEVAR, BILIMDONLAR — SIRDARYOLIK BOLAJONLAR

Shunday o'y-xayollar bilan band bo'lib, peshtoqiga «Guliston shahar 12-umumta'lim maktabi» deb yozilgan binoga yetib kelganimizni ham sezmay qolibmiz. Maktabning yuqori sinf o'quvchilari paxta yig'im-terimida ota-onalariga ko'maklashayotgan ekan. Ular bilan paxtaozlarda suhbatlashishni ko'nglimizga tugib, yangi ta'mirdan chiqqan ikki qavatli bilim maskaniga maktab rahbari Zulfiya opa Abdunazarova hamrohligida qisqagina sayohat uyushtirdik. Opa o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirib, bizga, jumladan, quyidagilarni gapirib berdilar:

Umumta'lim maktabimizda 816 nafardan ziyod o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya oladi. Ularga M.Nishonboyeva, I.Komilova, I.Saitqulova, M.Aslanqulova kabi bilimli, tajribali ustoz va murabbiylar astoydil saboq berib kelishyapti.

O'quvchilarimizning nafaqat bilimli, biror hunarli bo'lishlari uchun ham astoydil harakat qilamiz. Shu maqsadda, 2ta sinfdan tashqari hamda 19ta fan to'garaklari muntazam ishlab turibdi. M.Yoqubova, G.Karimova kabi tajribali ustozlar boshchilik qilayotgan bunday to'garaklarga 612 nafar o'g'il-qiz jalb qilingan bo'lib, bu o'quvchilarimiz sonining 76,2 foizini tashkil qiladi. «Meros» to'garagi a'zolari rahbarlari Maxsuda opadan ajdodlarimizdan qolgan oltin merosimizni o'rganishsa, o'lkamiz tarixiga qiziqadigan yoshlar G.Karimova boshchilik qilayotgan «Adabiy o'lkashunoslik» to'garagiga jam bo'lishgan. Uning faol a'zolaridan bo'lgan 8-sinf o'quvchisi Shahzod Xolto'rayev Jizzax shahrida bo'lib o'tgan yosh qalamkashlarning «Nafosat» Respublika ko'rik-tanlovida ishtirok etib, Xalq ta'limi vazirligining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi. 9-sinf o'quvchisi Dono Muhammedova ham maktabimiz faxri sanaladi. U «Yosh hunarmandlar» ko'rik-tanlovining shahar va viloyat bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Shuningdek, «Yosh rassom», «Yosh ekolog», «Yosh sportchi» to'garaklarining ishlari ham tahsinga loyiq. «Yosh sportchi» to'garagi rahbari G. M. Kovelonkonging umidli shogirdlaridan biri 11-sinf o'quvchisi Luiza To'rabekova sportning yengil atletika turi bo'yicha shu yil may oyida Qashqadaryoda bo'lib o'tgan «Umid nihollari» sport musobaqasida

Mohidil YO'LDOSHEVA,  
Oybek nomli 12-umumta'lim maktabining 7 - «B» sinf o'quvchisi:

### OMADIMIZ CHOPGAN

Bilim dargohimiz tumanimizning yerida joylashgan. Ikki qavatli, xonalarining ko'pligidan gohida Direktorimiz Zulfiya opa Bizning puxta bilim olishimiz, shug'ullanishimiz uchun yaratib berganlar. Gohida intizomga chaqirib, koyishlari Sinf rahbarimiz Gulnoza g'amxo'rliklarini aytmay-Gapning qisqasi, bizning chilardan ham omadimiz chopgan.

Shahnoza MASHRABBOYEVA,  
Guliston shahridagi 13 - maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi:

### «SHE'RIM BO'SHROQ, BILAMAN...»

Yozgi ta'til kunlarimizda Toshkentga sayohatga bordik. Poytaxtimizning eng xushmanzara joylarida bo'ldik, saylgoh-u xiyobonlarida dam oldik, «Shahidlar xiyoboni»ni ziyorat qildik. Ayniqsa, «Temuriylar muzeyi»ga qilgan sayohatimiz menda katta taassurot qoldirdi. Ko'rganlarimdan ta'sirlanib, quyidagi she'rinni yozgandim. To'g'ri, she'rim kamchilliklardan holi emas, qofiyalari bo'sh. Lekin bu mening birinchi she'rim-da. Uni gazetangizda chop etsangiz, ilhomlanib yanada yaxshiroq she'rlar yozishga harakat qilardim:

#### TEMURIYLAR MUZEYI

Uning ko'rkin, ta'rifin, Qilsam sizlarga bayon. Ko'hna tarix hayoti, Bo'lar yaqqol namoyon. Bobomizning hayoti, Ular kiygan kiyimlar. Barcha-barchasin ko'rish - Bizga eng oliy sharaf.

### GAP YOSHDA EMAS...

Siz suratda ko'rib turgan mana bu amakivachchalar ham aynan shu maktabning 1-sinfga qadam qo'yishibdi. Kattasi-O'g'iloy olti yoshda, kichigi Xayrinisa esa besh yarim yosh. «Gap yoshda emas, boshda» degan iborani ularga bemalol nisbat qilish mumkin. Chunki hali juda yosh bo'lsalar-da, sinfdagi a'lochi o'quvchilar qatoridan munosib joy olishga ulgurishibdi.

Qizchalarni biroz gapga solsangiz, birlariga navbat berishmaydi. Chunki, birinchi ustozlari Inobat opaning saboqlari-yu, Prezident bobolari bergan sovg'a-salomlar haqida to'liqlanib gapiradigan gaplari juda ko'p-da!



Rashid ABDULLIN,  
Guliston tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 11 - sinf o'quvchisi:

### SAVOBIGA NE YETSIN?!

Men asli tatar xalqining farzandiman. Lekin o'zbek mahallasida katta bo'lganim, o'zbek tilidagi maktabda tahsil olayotganim uchun ham bu tilda bemalol gaplashaman, o'qib, yoza olaman.

Ayni kunlarda darsdan keyin paxta dalalariga chiqib, ota-onamizga yordamlashyapmiz. Mehnat qilib, ishlab topayotgan pullarim ham anchagina bo'lib qoldi. Ularga o'zim uchun qishki kiyim sotib olmoqchiman. Dadam, kiyim-boshingni o'zim olib beraman, deydi. Lekin peshona teri evaziga topilgan pulga bozor qilishning gashti bir boshqacha bo'lsa kerak...

Katta bo'lsam, xuddi akamdek o'to'chiruvchilik kasbini egallamoqchiman. To'y-hashamda insonlar quvonchiga sherik bo'lish boshqa. Lekin kishining boshiga kulfat tushganda, o't balosiga uchraganda, unga yordamga oshiqishning savobiga nima yetsin?!

Nulifar IBROHIM qizi, 12-maktabning 5 - «V» sinf o'quvchisi:

### NAQ 18 KILO-YA?!

Maktabdan kelsam, oyim paxta dalasiga o'tlanayotgan ekanlar. Oyijon, men ham boray. Umrimda hali biror marta ham paxta termaganman, deya yalinib turib oldim.

Voy ona qizim-ey, hali nima umr ko'ribsan, «umrimda» deysan? O'zing maktabdan charchab kelding. Tushlik qilib, biroz damingni ol. Keyin darsingni tayyorla. Hali paxta terishga ham ulgurarsan, dedilar oyijonim mehribonlik bilan boshimni silab.

Oyijonisi, mayli borgisi kelsa, olib bora qoling, deya suhbatimizga qo'shildilar bobom, -paxta dalalarini ham bir ko'rib kelsin.

Shunda quvonganimni bir ko'rsangiz edi.

Chanoqlarda lo'ppi-lo'ppi ochilib turgan paxtalarni terish biram gashtli ekanki, o'ziyam naq 18 kilo paxta teribman.

Sen juda chaqqon qiz ekansan-ku, biz bilmagan ekanmiz. Sendaqalardan yana ikkita bo'lsa, rejani ham bir zumda bajarib qo'ygan bo'larmidik?-deya hazillashdilar bobom.


San'at SOLLJONOVA,  
Sirdaryo viloyati, Mirobod tumani, «Oq oltin» jamoa xo'jaligidagi 13-o'rtta maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi:

### FORMA KIYISH SHARTMI?

O'quvchilar intizomining bir jihati o'z-o'zidan maktab formasiga borib taqaladi. Har bir bilim dargohi o'ziga xos maktab formasi tanlab, o'quvchilardan doimiy ravishda uni kiyib yurishni talab qiladi. Ammo hamma maktablarda ham bu intizomga rioya qilmaydigan o'quvchilar topiladi. Chunki ular har kuni bir xil kiyinishni yoqtirishmaydi. Qolaversa, ota-onasi olib bergan yangi kiyimlarini «ko'z-ko'z»lagisi keladi. Besh qo'l barobar bo'lmaganidek, sharoiti og'irroq oila farzandlarining ularni ko'rib ko'ngillari o'ksishi tayin. O'qituvchilar esa tanbeh bera-bera charchashgach, qo'l siltab qo'ya qolishadi.

Bizning maktabimizda esa tamoman o'zgacha holatni ko'rasiz. Maktab formamiz ixcham, zamonaviy, muhimi, har bir o'quvchining talabiga mos keladi. Bundan hatto ota-onalarimiz ham xursand. Boshqa maktablar ham formamizga havas qilib, o'quvchilarga tavsiya qilishgan. Shu mulohazalardan kelib chiqib, maktablarda o'quvchilar uchun alohida forma joriy qilinishi shart, deb o'ylayman. Shundagina har bir o'quvchi o'zini o'quvchidek his qiladi. Turli kiyim-kechaklarga chalg'imasdan, ilm olishga mas'uliyati oshadi.

Sahifa materiallarini Feruza JALILOVA tayyorladi.



qatnashib, «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi. Bilim maskanimizda bo'ladigan hech bir bayram, tantana maktab qoshidagi «Folklor» hamda «Guldasta» ashula va raqs dastasi ishtirokisiz o'tmaydi. Bu dargohda biror kecha yoki tadbir o'tkazilmaydigan kunning o'zi bo'lmaydi, hisobi. Bir kuni quyi sinf qizchalari «Jajji malika» ko'rigida malikalikni da'vo qilishsa, boshqa kuni o'g'il bolalarimiz «Balli, yigitlar!» tanlovida sardorlik uchun bahslashadilar. Viloyatimizda yashab, ijod qilayotgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar bo'ladigan kuni faollar zalimizga odam sig'may ketadi. «O'qituvchi va murabbiylar kuni» munosabati bilan o'tkazilgan «O'qituvchim, sizga o'xshagim kelar», «Sizga ta'zim ustoz-muallim!» kabi bayram va kechalarimiz taassuroti hali qalblarimizni tark etmay turib, «O'zbek tiliga davlat maqomi berilgan kun»ning 17 yilligini munosib nishonlashga hozirlikni boshlab yubordik. «Alisher Navoiy - o'zbek tilining asoschisi» mavzuida insholar tanlovi hamda «Ona tilim-jon-u dilim» mavzusida kitobxonlar konferensiyasi uyushtirishni rejalashtirib qo'ydik. Har haftada bo'lib o'tadigan «Eng toza sinf» ko'rigi o'quvchilarimizni ozodalik, sarishtalikka o'rgatib, ularda mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beryapti.

O'quvchilarimizning bari bilimga chanqoq. Darsliklardan olayotgan bilimlari bilangina cheklanib qolmay, ko'plab badiiy kitoblar, gazeta va jumallar o'qishadi. Ayniqsa, «Tong yulduzi»ning muxlislari juda ko'p. Buni o'quvchilarimiz obuna bo'layotgan nashrlar ro'yxatida gazetangizning birinchi o'ringa turganidan ham bilsa bo'ladi.

Nasib bo'lsa, bu yil «Tong yulduzi» muxlislari soni maktabimiz o'quvchilari hisobiga yana 100 nafarga ortadi.

Xullas, maktabimizda hayot jo'shadi. Ishonmasangiz, bir keling, kuningiz qanday o'tganini ham sezmay qolasiz...

So'lim Sirdaryoda ham muxlislarimiz soni yanada ortib borayotganidan quvonib, paxta dalalari sari yo'l oldik.

Hormanglar, yosh hasharchilar, deya ayrim tengdoshlaringizni suhbatga tortdik:

Barno TO'XTASINOVA,  
Sirdaryo viloyati, Guliston tumanidagi 3-o'rtta ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi:

### O'Z PULINGA GAZETAGA OBUNA BO'LDIM

Men ham ko'plab tengdoshlarim kabi gazetangizning ashaddiy muxlislaridanman. Ayniqsa, ijodkor bolalarning she'rlari chop etilsa, berilib o'qiyman. O'zim ham she'riyat olamiga endi-endi qadam qo'yyapman. Ayni kunlarda, paxta dalalarida ota-onalarimizga hosilni yog'in-sochin kunlarga qoldirmay yig'ib-terib olishda ko'maklashyapmiz. Tunov kuni o'zim ishlab topgan pulimga «Tong yulduzi»ga 2007-yil uchun obuna bo'ldim. Endi uning har bir sonini miriqib o'qib boradigan bo'ldim. Yaqinda yozgan ona haqidagi she'rinni gazetada e'lon qilsangiz, juda xursand bo'lardim:

Madina OLIMJON qizi,  
G'afur G'ulom nomli 6 - o'rtta maktabning 8-«E» sinf o'quvchisi:

### BU YIL BIRINCHI BO'LDIM

O'tgan yili «Tong yulduzi»ga obuna bo'lolmagandim. Aniqtirg'i, o'zimdagi unchalik xohish ham bo'lmagandi. Lekin unga obuna bo'lgan sinf o'quvchilari gazetaning yangi soni qo'llariga tegishi bilan: «Anavi maqolani o'qidingmi? Mana bu she'r zo'r ekan-a?» deya o'zaro bahslashib ketishlarini ko'rib, ularga juda havasim keldi. Shuning uchun ham bu yil birinчилardan bo'lib gazetaga yozildim.

## Qadriyat

Besh-olti bolakay bir bo'lib, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar darvozasini qoqishmoqda: Ramazon aytib keldik eshigingizga...

Aslida Ramazon qo'shig'i ro'za uch kun tutilib, keyin aytilardi. Bu qoida Ramazon qo'shig'i so'zlarida ham keltirib o'tiladi:

Ro'zani uch kun tutib keldik sizga,

Ro'zaning zakotini bering bizga...

Ammo, yurtimizning ayrim joylarida ro'zaning birinchi oqshomidanoq ramazon aytish boshlanib ketadi. Masalan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida bu holni kuza-

tishimiz mumkin. Keling, Ramazon qo'shiqlariga yana bir bor quloq osaylik:

Uyingiz ustida oy ko'rdik,  
Hammadan sizni boy ko'rdik.  
O'choqda kul,  
Karmonda pul,  
Chiqara qoling,  
100 so'm pul.

Iye, bu «shovvozl» uy egasidan ko'proq pul olish uchun uni maqtashga tushib ketishdi-ku. Ha, mayli, omadini bersin. Axir bu ham bir «biznes»da.

Aslida, avvallari Ramazon aytib kelgan bolalarga pul berilmagan. Ularni qand-qurs, mayiz, yong'oq kabi shirinliklar bilan siylashgan. Hozir ham ba'ziba'zida bu holni kuzatishimiz mumkin. Mana bu bolalarimiz nima deyishayapti? Eshitaylik-chi?

Ro'zada so'ygan qo'ying go'shti qani,  
Go'shtini siz yesangiz, to'shi qani?  
To'shini ola chiqing lali-lali...

Ramazon, mohi Ramazon.

O, ishtahalari karnay-ku. Mayli, yoqimli

ishtaha...

Bundan 30-40 yil ilgari Ramazon qo'shig'ini tor, doira, rubob kabi cholg'u asboblari bilan aytib yurishgan. Katta yoshli kishilarning aytishicha, doira, rubob chalib Ramazon aytib yurgan bolalar ko'p bo'lishgan ekan.

Ko'chalar xuddi to'ydek shovqin-suronga to'lib ketarkan:

Ramazon aytib keldik eshigingizga...

Qo'chqordek o'g'il bersin beshingizga.

Shu uying orqasidan oy ko'rinar,

Shu uying egalari boy ko'rinar.

Ramazon, mohi Ramazon...

Shu uying ostonasi tilla

emish,

Shu uying o'g'il-qizi mulla emish.

Ramazon, mohi Ramazon...

Mulla bo'lsa bir o'qisin, biz ko'raylik,

Orqa sochin xo'p tarasin, biz o'raylik.

Ramazon, mohi Ramazon...

Diyorimizning deyarli barcha joylaridagi Ramazon aytuvchi guruhlarining to'daboshisi bo'ladi. U barcha Ramazon qo'shiqlarini bilishi va shirali ovozda ayta olishi kerak. Qolganlar jumla o'rtasida birvarakayiga: «Ramazon, mohi Ramazon...» deya jo'r bo'ladi.

Xalqimizning boy madaniy merosi bor. Diniy va milliy san'atimizning ajralmas bo'lagi hisoblangan Ramazon qo'shig'i ham merosimiz javohirlaridandir. Bu qo'shiqning avloddan-avlodga, og'izdan - og'izga o'tib, barhayot yashashiga ishonamiz.

Qani, Ramazon aytishga keldik:

Ramazon aytib keldik eshigingizga...

Farhod ESHMO'MINOV.

## Tengdoshlaring ijodi

## ONAJON, SIZGA RAHMAT!

Ko'zinga nur baxsh etgan,  
Biz-la murodga yetgan,  
Alla aytib tong kutgan,  
Onajon, sizga rahmat!

Boshimizda parvona,  
Bizga do'st yana ona.  
Mehr berasiz yona,  
Onajon, sizga rahmat!

Kam qilmagan hech kimdan,  
Termular har izimdan.  
Aylanay, deb qizimdan,  
Onajon, sizga rahmat!

Doimo bo'ling omon,  
Shodlanib yuring har on.  
Shunda orom olar jon,  
Onajon, sizga rahmat!

Zuhro FARMONOVA,  
Surhondaryo viloyati,  
Sayhunobod tumani, 8-sinf o'quvchisi.



## BEZOFTA RUH

Sokin oqshom, oying shu'lasi,  
Cho'qqi uzra nur tarayapti.  
Qurib qolgan bir gulning ruhi,  
Gulzor uzra charx urayapti.

Gulzor uzra izlaydi panoh,  
Hech gul uni olmaydi yodga?  
Alam bilan boqar har tomon,  
«Nahot zumda aylandim yotga?»

Ana, mening so'liq butog'im,  
Balki meni o'ylayotgandir?  
Dardkashimni yo'qotdim, deya,  
Meni qo'msab bo'ylayotgandir?

Ana, bog'bon, mening farishtam,  
Tong kelib qardi xabar.  
Nechun yana keldi yonimga,  
Endi mendan sochilmas anbar.

Bilsam, butoq qurib qolgandan,  
Uzib oldi qoldirmay qizib.  
Afsus, u ham meni o'ylamas,  
Unutildik endi ikkimiz.

Sokin oqshom, oying shu'lasi,  
Cho'qqi uzra nur tarayapti.  
Qurib qolgan bir gulning ruhi,  
Gulzor uzra charx urayapti...

Durdona Begim QODIROVA,  
Toshkentdagi 129 - maktabning  
9 - «B» sinf o'quvchisi.



## O'ZBEK O'G'LONI

Yuragida shijoat, qo'rqitilmaydi g'anim,  
Ko'rsatib zo'r jasorat, asrab kelar vatanin.  
Ko'ksi doimo qalqon, boshi egilmas yerga,  
Ahdida adl turar, taslim bo'lmaydi yovga.

Qaddini tik ko'tarib, turadi mag'rurlanib,  
U bilan ona xalqim yuradi g'ururlanib.  
Askar bo'lib vatanga sodiq farzand bo'lmoqchi,  
Yigitlik burchini u halol ado etmoqchi.

Chegaradan bir qadam o'tkazmoqchimas yovni,  
Bunga yo'l qo'yolmaydi pok vijdoni, imoni.  
Ichgan qasamyodiga sodiq turibdi o'g'lon,  
Qaddini kerib sherday, qo'rqmas, jasur pahlavon.

Vatan oldidagi burch aziz turar jonidan,  
Bu tuyg'u joy olgandir uning jo'shgan qonidan.  
Sen bilan mustahkamdir yurtimizning qo'rg'oni,  
Vatan ostonasida turgan o'zbek o'g'loni.

Ozoda OMONOVA,  
Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi  
249-maktabning 11- «B» sinf o'quvchisi.

## MEHRIBONIM

Yuragimning tubida,  
Bir so'z doim jaranglar.  
Bo'lar mehrimiz payvand,  
Ona desam, qaranglar!

Ko'zlarimning nurisiz,  
Boshginamda parvonam.  
Siz-la nurga to'ladi,  
Kirganingizda xonam.

Siz bebaho gavharim,  
O'gitlaringiz dilda.  
Yuzga kiring, tilagim,  
Siymongiz bor har gulda.

Mo'mina EGAMBERDIYEVA,  
Alisher Navoiy nomli  
Respublika Nafis san'at litseyining  
7-sinf o'quvchisi.



## DIQQAT, TANLOV !!!

Qadrli bolajonlar!

Har biringiz ota-ona, yaqinlaringiz uchun azizsiz. Salomatligingiz esa undan-da azizroq. Bu borada avvalo o'z sog'lig'ingizga o'zingiz ahamiyatli bo'lishingiz kerak.

borganmi?

–Tegirmonlarga maxsus uskunalar o'rnatilganmi?

–«Unni boyitish bo'yicha milliy dastur»ga qaysi xalqaro tashkilotlar hissa qo'shmoqda?

Bu boradagi ma'lumotlarni oilaviy shifoxonalar, salomatlik mavzusidagi teleko'rsatuv, radioeshittirish, gazeta-jurnallardagi maxsus ruknlar va mahalliy un mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda savdo korxonalarini bilan muloqot qilish orqali olishingiz mumkin.

# «SALOMATLIK GAROVI» YOKI «TEMIRGA BOY UNNI BILASIZMI?»

Keyingi yillarda respublikamizdagi ona va bolalar o'rtasida temir tanqisligi-anemiyasi, ya'ni, kamqonlik ortib borayotgani hammani tashvishlantirmoqda.

Bu kasallikda insonning hech yeri og'rimaydi, faqat holsizlanadi, ishtaha yo'qolib, xotira susayadi, tez charchab, burun o'z-o'zidan qonayveradi. Ayniqsa, qizlarning sochi to'kiladi.

Ana shu kasallikka qarshi «SALOMATLIK GAROVI» nomli ijodiy ishlar radiotanlovi e'lon qilayapmiz.

«O'ZBEKISTON» teleradiokanali, XALQ TA'LIMI hamda SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIKlari hamkorlikda o'tkazayotgan «SALOMATLIK GAROVI» nomli o'quvchilar o'rtasidagi radiotanlov shartlari quyidagicha:

–Temir tanqisligi kasalligi, ya'ni, anemiya qanday kasallik?

–Uning asoratlari nimalarga olib kelishini kuzatganmisiz?

–Bu kasallikni har xil dori-darmon vositalari, tabletkalarsiz, oddiy, tabiiy usulda davolashning qanday choralari bilasiz?

–Bu borada O'zbekiston hukumatining «Unni boyitish» bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlari qachondan boshlangan?

–Siz yashayotgan joyga ham temirga boyitilgan un, non mahsulotlari yetib

Qo'shimcha ma'lumotlar esa [www.non.uz](http://www.non.uz) veb saytida jamlangan.

Tanlovimiz homiysi «YUNISEF» XALQARO BOLALAR JAMG'ARMASI bo'lib, eng yaxshi ijodiy ish yozib yuborgan o'quvchilarga qimmatbaho sovg'alar taqdim qiladi.

«SALOMATLIK GAROVI» tanlovida 5-sinf dan to 11-sinf gacha bo'lgan maktab o'quvchilari ishtirok etishi mumkin. Ijodiy ishlaringizni TOSHKENT-47, XORAZM KO'CHASI 49 - UY. «O'ZBEKISTON» TELERADIOKANALINING «KELAJAK TONGI» yoki «O'SMIR» eshittirishlari hamda «TONG YULDUZI» gazetasiga yuboring.

Yaxshi ijodiy ishlar gazetamiz sahifalarida ham chop etib boriladi.

SHOSHILING! «SALOMATLIK GAROVI» tanlovi 2006-yilning 31-dekabrigacha!

2007-yilning yanvar oyida esa g'oliblar Toshkent shahriga chaqirilib, taqdirlanadi.


Biz ijodiy ishlaringizga, sovg'alarimiz esa sizga muntazirdir!

G'oya muallifi

Saidaxon ZOKIROVA,

«O'ZBEKISTON»

teleradiokanalining katta muharriri.



Bu voqeani menga harbiydan qaytgan tog'am gapirib bergandilar.

Tog'am Rossiyaning Vladivostok shahrida dengiz flotida xizmat qilganlar. Harbiy xizmatga yangi borgan kezlarida u yerdagi matroscha kiyingan yigitlarni, kattakon kemani ko'rib rosa havas qilibdilar. Ko'p o'tmay, o'zlari ham mana shunday formada katta dengizda suzishlarini o'ylab, faxrlanib qo'yibdilar. Oradan oylar o'tibdi. Harbiy qasamyod qabul qilishgandan so'ng, ularga matroscha kiyim berishibdi va kemaga chiqarishibdi. Kemaning hadeb chayqalaverganidan ko'p yigitlarning ko'ngli behuzur bo'lib, betob bo'lib qolishibdi. Bu kasallikni matroslar «Dengiz kasalligi» deyisharkan... Tog'am ham kasal bo'lib qolibdilar. Shunday kunlarning birida ular kema palubasiga chiqib, yulduzlarni tomosha qila boshlabdilar. Shu payt palubada kimdir yurganini ko'rib qolibdilar. Sharpa tog'amning oldilariga kelib, ruschalab salom beribdi. Tog'am

ham unga javob beribdi. Ikkalasi kema palubasidagi panjaraga suyalib, uzoq gaplashishibdi.

–Men kema kapitaniman, ism-sharifim Ivan Korneyevich, -debdi boyagi kishi sigaret tutatib. Negadir tutun ichida uning o'zi ham

## KEMA KAPITANINING RUHI

tutun singari ko'rina boshlabdi. Bundan tog'am hayron bo'libdilar. Kasalligim tufayli shunaqa tuyulayapti, deb o'ylabdilar.

–Bir paytlar shu kemada yong'in bo'lgan edi. Ko'p matroslar bilan birgalikda yong'inni zo'rg'a o'chirgandik, mana bu chandiqlar o'sha yong'indan esdalik bo'lib qolgan, -debdi kapitan qo'llaridagi tirtiqlarni ko'rsatib.

–Ha, -debdi tog'am.

–Bu chandiqlar bitguncha qiynalgan bo'lsangiz kerak?

–Albatta. Endi borib yot, matros, men biroz aylanaman, -debdi kapitan va kema bo'ylab yurib ketibdi. Tog'am joylariga borib yotibdilar.

Ertasi kuni kema kapitani matros larni qutlash uchun palubaga chiqibdi. Umuman boshqa odamni ko'rgan tog'am shoshib qolibdilar. Kechagi odam meni aldabdi-da, degan xayolda tushkunlikka tushib qolibdilar. Kechga yaqin bu yerda xizmat qilayotgan boshqa matrosdan kema kapitani haqida so'rabdi.

–Kemamiz kapitani bugun ertalab ko'rgan odaming-da, -

deb javob beribdi matros.

–Men kecha boshqasi bilan gaplashdim-u, -debdi tog'am ajablanib. O'zlarini Ivan Korneyevich deb tanishtirdilar.


–Iye, u odam o'tgan yili bo'lgan yong'inda halok bo'lgan-u, -debdi matros hayron bo'lib. -Aytishlaricha, bu yerda uning ruhi kezib yurarmish. Sen arvoh bilan gaplashibsan-da, oshna, -deb matros tog'amning yelkasiga bir uribdi. O'sha kuni tog'am qo'rqib ketganlaridan ertalabgacha uxlamay chiqibdilar. Xuddi kemadagi arvoh ularni ta'qib qilayotgandek tuyulaveribdi. Hatto kechalari o'rtoqlari bilan palubaga ham chiqmay qo'yibdilar. Shu voqeadan keyin tog'am o'sha sharpani boshqa ko'rmabdi. Lekin «ruh»ning qo'llaridagi chandiqlar hamon ko'zlarining oldida turarkan.

Sunnatbek IKROMOV,  
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 7-maktabning 10-sinf o'quvchisi.





KOPTOK



(Masal)

**Jumirboy QAYIRBOYEV**

Shar chopib yurgan koptokni ko'rib:

-Koptok jo'ra, seni hamma tepadi. Hech kim ayamaydi. Bunga bir chekkasi o'zing ham aybdorsan, doim chopishga tayyor turasan. Mana, menga qara, hamma hurmatimni joyiga qo'yadi,

avaylab puflab, hatto qo'liga olib yuradi,-dedi. So'ngra, maqtanib qo'shib qo'ydi: - Men nozikman. Shuning uchun ham hech kim chertmaydi.

Unga javoban koptok shunday dedi:

-Boshqalar tepsa, tepsin. Mening xizmatimning o'zi shunday. Senga o'xshab qo'l-oyog'im boylog'liq turganimdan erkin yurganim yaxshi. Urgan sari chiniqaman. Sendek nozik bo'lib, qo'lda yurgandan tinmay chiniqqanim ming marta a'lo.

Shu payt shar koptokning bu gaplarini mazax qilib qattiq kulgan edi, yupqa qorni yorilib ketdi.

*Qoraqalpoqchadan*

*Safo MATCHON tarjimasi.*

*Bizning tarjima*

Bir kuni Jak ismli bola o'z otasi bilan qo'shni shaharga yo'l olishibdi. Yo'l-yo'lakay ular xo'jalik do'koniga kirib, bir qop mix sotib olishibdi.

-Jak! Manavi mixlarni olginda, o'z savatingga sol, -debdi otasi.

Lekin Jakning erinchoqligi tutib, qop to'la mixlarni ko'tarishni xohlamabdi. U yalqov va dangasa bo'lganligi sababli mix to'la qopni ko'tarish uchun qaddini bukib, egilishga erinibdi.

Shunda Jakning otasi o'zi egilibdi-da, yelkasidagi xaltani olib, mix to'la qopchani uning

ichiga solibdi. Shaharga yetib kelgach, Jakning otasi mixlarni sotib yuboribdi va savdodan tushgan pulga gilos sotib olibdi.

Ular uyga qaytayotganlarida, kun ancha issiq edi. Kunning issiqligidan Jakning og'zi qaqrab, chanqabdi. Shunda buni ko'rgan Jakning otasi xaltadan gilos donalarini olibdi-da, ularni bittama-bitta yerga tashlay boshlabdi. Buni ko'rgan Jak yerga tushgan giloslarni egilib, bittama-bitta tergancha yeya boshlabdi. Otasi yana bitta gilos tashlabdi, keyin yana bitta, va yana bitta... Jak ham o'z navbatida har gal otasi gilos tashlaganida yerga egilib, ularni og'ziga solar va miriqib yer edi. Shu yo'sunda u xaltadagi barcha giloslarni bittama-bitta og'ziga solgancha yeya boshlabdi.

Shunda ota bolasiga qarab kulibdi-da, debdi:

-Oh mening kichkinagina yalqovginam! Sen mix to'la qopchani ko'tarish uchun bir marotaba egilishga erinding, ammo yerga tushgan giloslarni terish uchun yigirma marta egilishga erinmading!

Otasining bu gaplarini eshitgan Jak darhol o'z aybini tushunib yetibdi. Bu unga katta saboq bo'libdi. U otasiga debdi:

-Dadajon! Siz mening ko'zimni ochdingiz, siz dahosiz, endi men hech qachon yalqovlik qilmayman. O'gitingiz menga yaxshi dars bo'ldi.

*Fransuz tilidan Bobur NAZARMUHAMMEDOV tarjimasi, O'zMU talabasi.*

Oyisi: -Tug'ilgan kuning bilan, o'g'lim, bugun sen 5 yoshga to'lding.

Tommi: -Rahmat, oyijon!

Oyisi: -Xohlaysanmi, senga ustiga 5ta sham qo'yilgan bir tort olib kelaman?

Tommi: -Mayli, faqat 5ta tort ustiga 1ta sham bo'la qolsin...

X X X

Kichik bir qishloq bekatida avtobus to'xtadi. Sal uzoqroqda bir ayol keks sotayotgan edi. Avtobusdagi yo'lovchi keks sotib olgisi keldi, lekin ulgurmas edi. Shunda u oynadan qarab shirinlik sotayotgan ayolga yaqin turgan boladan iltimos qildi.

-Keks necha pul turadi?- so'radi bolakaydan. - 100 so'm, - javob qaytardi bola. - Mana bu 200 so'mni olginda, ikkimizga bittadan keks olib kel, - deya iltimos qildi. Birozdan so'ng bola bir qo'lida 100 so'm pul bilan keks chaynab kelardi. - Amaki, mana qaytimi, keks bir dona qolgan ekan.

X X X

Londonga birinchi marta kelayotgan sayyoh mehmonxonaga kiribdi. U bir kichik xonaga kiribdi va shu zahotiyuq xodimga qarab:

-Menga bu xona yoqmadi, hech narsasi yo'q ekan, -debdi.

Shunda xodim:

-Siz bu yerda qolmaysiz. Bu yotoqxona emas, bu lift, - deya javob beribdi.

X X X

Qadim zamonlarning birida bir qassobning puli yo'qolibdi. Shunda u o'z go'mondorlarini yig'ib, shahar qozisining oldiga boribdi. Gumondorlari 4 kishidan iborat ekan. Qozi judayam aqlli odam ekan. U gumondorlar soniga qarab xizmatchisiga 4ta kosada suv keltirishni buyuribdi. Suv olib kelingandan so'ng, qozi gumondorlarga buyuribdi: «Hammangiz pulingizni o'z oldingizdagi kosalarga solinglar», debdi.

Hamma qozi nega bunday qilganiga hayron bo'libdi. Biroz muddatdan so'ng, qozi kosadagi suvlardan birini tanlab, shunday debdi: «O'g'ri mana shu kishi ekan, chunki suv ustida yog' tomchilari sizib yuribdi. Qassob har doim go'sht va yog' kesib o'lchab, keyin pul sanaydi, shuning uchun ham uni puli yog'li bo'ladi...»


O'g'ringiz tan olmasdan boshqa ilojisi qolmabdi.

Hamma qozining aqliga tasannolar aytibdi.

*Fors tilidan Maxsuda KAMALOVA tarjimasi.*

*O'zMTDP Toshkent shahar kengashi mutaxassisi.*

**BO'SH O'TIRMAY,  
BOSH QOTIR!**



1. Maymun ovqati
2. Rim
3. Navkar, qo'shir
4. Konfet turi
5. Zafar, yutuq
6. Pokiza, toza
7. Shoti (shevada)

*Guloyim TO'LIBOYEVA,  
Toshkent shahar, Hamza  
tumanidagi 206-maktabning  
7- «V» sinf o'quvchisi.*

**TONG  
yulduzi**

**BOSH MUHARRIR:**

*Umida*

**ABDUAZIMOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jam'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi vazifasini

bajaruvchi),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati, Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

**Gazeta O'zbekiston**

**matbuot va axborot**

**agentligida**

**022-raqam bilan 2003-**

**yil 11-dekabrda**

**ro'yxatdan o'tgan.**

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

**Adadi - 17171**

**Buyurtma N: J 2884**

Dizayner va

sahifalovchi:

**Fazliddin**

**SHOYODGOROV**

Navbatchi:

**Ozoda**

**TURSUNBOYEVA**

Rassom:

**Nodira MIRZAYEVA**

*Manzilimiz:*

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10